

MUHAMMADJON MIRZAEV BAHOR VA XALQ KUYCHISI

Maryam Mirzaeva,
A.Qodiriy nomidagi JDPI
Musiqqa madaniyati fakulteti
Musiqiy ta'lim kafedrası
o'qituvchisi

Annotatsiya: ushbu maqolada o'zbek xalqining milliy musiqa madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan bastakor Muhammadjon Mirzaevning buyuk xizmatlari to'g'risida, hayot yo'li ijodi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: sozanda, bastakor, san'atsevar, me'ros.



MUHAMMADJON MIRZAEV
(1913-1999)

Milliy musiqa madaniyatimiz tarixida o'zining yorqin san'ati, mukammal ijrochilik mahorati bilan mashhur bo'lgan hamda milliy musiqiy me'rosimiz bilimdoni sifatida xalqimiz e'tiborini tortgan, san'atsevar yoshlarimiz qalbidan chuqur o'rin olgan ustoz san'atkorlar sozanda - bastakorlarimizning boy musiqiy merosining bizgacha yetib kelishida xizmatlari katta. Ularning soz ustasi mahorati, sozandalik san'ati bir-biriga ulanib, bir-birini to'ldirib, ustoz-san'atkor darajasiga

ko‘tarildilar. O‘z davrining mashhur va zabardast san‘atkorlari sifatida tarixda qoldilar. Ular ijrosida yozib olingan mumtoz kuylar, yaratgan musiqiy asarlari, betakror ijod namunalarini tinglashga muyassar bo‘lgan har bir yosh sozanda cholg‘uchida ijrochilik san‘atiga mehr, kasbiy havas, qiziqish uyg‘onadi. Sozlardagi mohirona ijro etilgan ohang taralishlari yoshlarda o‘zgacha his va nafis tuyg‘ularni jonlantiradi. Bu sehrli sadolar, noyob ohanglar yoshlar qalbini butunlay rom etadi. Ustoz sozanda M.Mirzaev o‘g‘li Sh.Mirzaev bilan birgalikdagi ijrolari hali xanuz tinglaganda inson qalbini larzaga soladi. Ularning ijrosi , soz tutishi , rubobda jarangli ovoz chiqarishi, ovozga shakl berish usullari, kuyning jozibasi, sehrli tinglovchini jumladan, “Go‘zal tong”, “Intizor etma”, “Lirik kuy”, “Dil kuylasin” kabi asarlar rubobchi yoshlar qalbini larzaga solgan, natijada har bir san‘atkor yosh sozanda qo‘lida rubob o‘ynadi. Bu esa, Ari Boboxonov, T.Rajabiy, A.Xudoyqulov, Q.Usmonov, X.Nabiev, T.Raxmatov, O.Nazarov kabi ajoyib sozanda, bastakorlar yetishib chiqishiga sabab bo‘ldi. M.Mirzaev sozni takomillashishida o‘zgacha yondashdi, natijada qashqar rubobining bor imkoniyati ishga solindi.

O‘zbekiston xalq artisti, bastakor va sozanda Muhammadjon Mirzaev ajoyib qo‘shiq, ashula va kuylari bilan el-yurt hurmat-e‘tiboriga sazovor bo‘ldi. Uning yaratgan asarlari hayotni, sevgi-muhabbatni, vafo va sadoqatni, mardlik va jasoratni aks ettiradi.

Muhammadjon Mirzaev 1913-yil 13-avgustda Toshkent shahrida ishchi oilasida tug‘ildi. 1920- yildan umumta‘lim maktabida o‘qidi. 1932-yilda Toshkent to‘qimachilik kombinatiga ishga kirdi va bo‘sh vaqtlarida Temiryo‘lchilar klubida tashkil etilgan havaskorlik to‘garagiga qatnab, mandolina chalishni o‘rgandi. 1936-yili O‘zbek filarmoniyasi qoshida To‘xtasin Jalilov rahbarligida tashkil topgan «O‘zbek xalq cholg‘ulari ansambli»ga ishga qabul qilindi. Bu yerda M. Mirzaevga rubobchi Yusuf Oxun qashqar rubobida kuylar chalishni o‘rgatdi. Yosh sozanda tez orada ansamblida ishtirok etish bilan birga,

musiqa ijrochiligi va ijodkorligi sirlarini o'rgandi hamda hayotiy maktabni shu ansamblida o'tadi.

Ikkinchi jahon urushi yillari O'zbek filarmoniyasi qoshida bir nechta «Front konsert brigadalari» tuzildi. Shulardan biri 1942-yilda tashkil etilgan bo'lib, M. Mirzaev ham ular bilan birgalikda, frontda jangchilarga konsertlar berib xizmat qildi.

1943-yili «Farhod GES»i qurilishi munosabati bilan ishchilarga madaniy xizmat qilish maqsadida boshqarma qoshida «Musiqali drama teatri» tashkil topdi. O'zbekiston San'at Bosh boshqarmasi Muhammadjon Mirzaevni ushbu teatrga musiqa rahbari lavozimiga tayinladi. Uning mustaqil bastakorlik faoliyati shu jamoada boshlandi. Sozanda va bastakor Muhammadjon Mirzaev zamonaviy mavzularda yangi-yangi jozibali qo'shiq va raqslarni yaratdi va ansambl ijro repertuarini boyitdi.

1948-yil Toshkent Davlat konservatoriyasida «O'zbek xalq cholg'ulari» kafedrasini tashkil topdi. Bu dargohga M. Mirzaev birinchi talabalar qatorida o'qishga kirdi va 1953-yili bitirdi. Shu yildan boshlab to umrining oxirigacha filarmoniya qoshidagi «Musiqali bo'limi»da rubobchi - yakkanavoz vazifasida ishlab, xalqimizga xizmat qildi. Uning ijrochilik mahoratiga barcha tan berdi, yuqori malakali ijrochilik san'atini sevimli o'g'li Shavkat Mirzaevga meros qilib qoldirdi. U 1950-1980-yillarda o'z ustida ko'p ishladi, tinimsiz ijodiy mehnat qildi. Uning ashula va yallalari O'zbekiston xalq hofizi Ma'murjon Uzoqov ijrosida ilk bor yangradi, jumladan, «Qachon bo'lg'ay», «Sho'xi jononim mening», «Yor istab», «Yo'lingda», «Ko'zlaring», «Surating», «Yolg'iz», «Yana», «Shaydo bo'libman», «Zor etding», «Parvoz etib ket».

Tojikiston xalq artisti Xanifa Mavlonova ijrosida quyidagi ashulalari mashhur bo'lib ketdi: «Parvona bo'ldim», «Yuragingni o'ynatdimi», «Gulchehra yor», «Husningga bu shaydoni», «Tong otguncha». Bastakor ko'p yillar davomida Mukarrama Turg'unboeva nomidagi «Bahor» raqs ansambl, O'zbekiston Davlat filarmoniyasining «Shodlik», «Lazgi» ashula va raqs ansamblari repertuarini kuy va qo'shiqlar bilan boyitdi. U 300 dan ortiq kuy va qo'shiqlar, yalla va raqslar

kuylarini yaratdi. Bulardan: «Bahor valsi», «Dildor I va II», «Intizor etma», «Gulnoz», «Ey gul», «Uch dugona», «Ko‘zlarimga ziyo ayla», «Chavandoz qizlar», «Assalom, kelin salom», «Toshkent nahori», «Dil kuylasin», «Go‘zal vatanim», «Marg‘ilon qizlari», «Shodlik» kabi kuylari keng qanot yozdi. Shuni aytish joizki, Moskvada o‘tkazilgan «O‘zbekiston adabiyoti va san’ati» dekadalarida, «Katta Farg‘ona kanali», «Farhod GES», «Kattaqo‘rg‘on suv ombori», «Toshkent kanali» kabi yirik qurilishlarda ijrochiligi va bastakorligi bilan faol qatnashdi.

O‘zbekiston musiqa madaniyatining rivojlanishidagi ulkan xizmatlari uchun orden va medallar bilan taqdirlandi. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, O‘zbekiston xalq artisti faxriy unvonlari bilan mukofotlandi.

Har yili bahor fasli boshlanishi bilan u yaratgan “Bahor valsi” yangray boshlaydi. Bastakor M.Mirzaev ona yurt tabiatiga, sevimli xalqiga san’atkorlarga har doim hayrat va hayajon bilan go‘zallikni kuy va qo‘shiqlarida ifodalab keldi. U o‘z davrining mashhur kuychisi edi, shuning uchun uning ijodida zamonaviy mavzu ustuvor turdi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Musiqa va unin o‘qitish metodikasi Gulnora Sharipova . Toshkent 2006.
2. “Musiqa madaniyati” darsligi. 5-7 sinflar.
3. O‘zbek musiqa adabiyoti N.Yuldasheva N. Raxmatov .Toshkent “Iqtisod va Moliya” 2010.
4. Ikrom Akbarovning “Yodga olish”. G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot.Toshkent 1980.